



**TARBIYA JARAYONLARIDA ALISHER NAVOIY MA'NAVIY
MEROSIDAN FOYDALANISH**

G'aybullayev Boburmirzo Nomonjon o'g'li
Namangan viloyati University of Business and
Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Pedagogikava psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya:

Ushbu maqolada yoshlarni umuminsoniy va milliy axloq ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli beqiyos ekanligini Navoiy asarlari misolida ko'rsatilgan. Yoshlar ma'naviyatini shalllantirishda, ularni barkamol etib tarbiyalashda Navoiy ma'naviy merosining ahamiyati haqida so'z yuritilga.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ma'naviyat, barkamol shaxs, sadoqat, jonkuyarlik, odamiylik

**ALISHER NAVOIY IS SPIRITUAL IN EDUCATIONAL PROCESSES USE
OF HERITAGE**

G'aybullayev Boburmirzo Nomonjon o'g'li
Namangan Region University of Business and Science
Teacher of the department of Pedagogy and Psychology

Abstract:

In this article, the role of fiction in educating young people in the spirit of universal and national morality is shown on the example of Navoi's works. Let's talk about the importance of Navoi's spiritual heritage in nurturing the spirituality of young people and raising them to perfection

Keywords: Alisher Navoi, spirituality, well-rounded person, loyalty, enthusiasm, humanity



АЛИШЕР НАВОИ ДУХОВЕН В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАСЛЕДИЯ

Гайбуллаев — сын Бобурмирзо Номонжана.

Наманганский областной университет бизнеса и науки

Преподаватель педагогического факультета психологии

Аннотация:

В данной статье на примере произведений Навои показана роль художественной литературы в воспитании молодежи в духе общечеловеческой и национальной нравственности. Давайте поговорим о значении духовного наследия Навои в воспитании духовности молодежи и доведении ее до совершенства.

Ключевые слова: Алишер Навои, духовность, всесторонне развитый человек, верность, энтузиазм, человечность.

Tarbiya – avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqa ta'siri ostida jismonan sog'lom, ma'nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha.

O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, ma'rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo'lida sarf qilish zarurligini o'qtirdi.

Bugungi kunda Alisher Navoiy hayoti va ijodini keng reja asosida o'rganishga katta ahamiyat berilganini umumta'lim maktab, o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi va oliygohlarning o'quv dasturlarida ham kuzatish mumkin. Chunki ulug' mutafakkir shoirning shaxsiyati va serqirra ijodiy merosi barcha avlod vakillari uchun bitmas-tugamas ibrat manbaidir. Muhimi shundaki, bugun Navoiyni anglash o'zlikni anglash darajasiga aylandi. Yoshlarimiz maktab partasidayoq shoirning hayoti bilan tanishish bilan birga, uning ruboiy va tuyuqlari, fard va qit'alari, g'azallari, dostonlari hamda ilmiy asarlari bilan ham yaqindan oshno bo'ladilar. Yoshlarni umuminsoniy va milliy axloq ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

beqiyos ekanligini Navoiy asarlari misolida ham kuzatish maqsadga muvofiqdir. Inson ma'naviy olamida ko'pgina axloqiy fazilatlar mavjudki, ular kishilarning botiniy dunyosida yashaydi va faoliyatida namoyon bo'ladi. Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rnini haqida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi",- degan edi. Halq ma'naviyatini shakllantirmasdan turib uni bir ezgu maqsad yo'lida birlashtirish mushkul. I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy mezonlar keltirilgan bo'lib, ulardan biri ajdodlarimizning ma'naviy merosidir. Yoshlarda vatanga, ilmga bo'lgan muhabbatni tarbiyalashda, barkamol shaxs qilib tarbiyalashda xazrat Mir Alisher Navoiy ma'naviy merosining o'rnini beqiyosdir. Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida barkamol inson obrazlarini yaratib, unga etishish yo'llari to'g'risida fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ma'rifiy asarlarida esa bunday insonni shakllantirishning mazmuni, tamoyillari, usul va uslublarini bayon etadi. Alisher Navoiy har bir inson aqlli, axloqli, bilimdon, oqil, dono, sofdil, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, kamtar, mard va jasur bo'lmog'i lozim, deb bilgan. Bugungi kunda xalqimiz orasida boriga qanoat qilmaslik, shukrona qilmaslik natijasida turli, tezroq boylik orttirish ilnjida turli qing'ir yo'llarga kirayotgan yoki boshqa davlatlarga ketib qulga aylanayotgan lishilar hech kimga sir emas. Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida qanoatni ijobiy xislat ekanligi haqida shunday yozadi:

"Qanoat bir qo'rg'onki, unga kirsang nafsning g'alvasidan qutilasan, qanoat bir cho'qqiki unga chiqsang do'st dushmanga muxtojlikdan halos bo'lasan, qanoat xokisorlikdirki natijasi yuksaklik, qanoat ekindir urug'i boylik, qanoat daraxtdir-mevasi xurmat, muhtojisizlik, qanoat maydir-achchiq, lekin nash'asi hodlantiruvchi, u yo'ldir qattiq lekin manzili sevinchdir". Shuningdek, insondagi nafs va uning balosi haqida, nafsning inson boshiga turli kulfatlar solishiga, nafaqat o'zining balki malakat tanazzuliga ham sababchi bo'lishiga doir shunday yozgan edi:

To hirsu havas xirmanini barbod o'lmas,
To nafsni havo qasri baraftod o'lmas,
To zulmu sitam jong'a bedod o'lmas,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas

Alisher Navoiy ta‘lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma‘rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi.

Insonlardagi eng qadrli fazilatlardan biri sadoqat va vafo to‘g‘risida Alisher Navoiy shunday yozgan edi: Odam-dunyolarga teng sharaf egasidir. It esa jirkanch maxluqdir Ammo yaxshilikni bilmaydigan bevafo odam-yaxshilikni unutmaydigan, vafodor itdan pastdir. Bugungi kunda respublika ta'lim tarbiya tizimining dolzarb vazifalaridan biri barkamol shaxsni tarbiyalab etishtirishdir. Barkamol inson bu-avvalo jamiyat manfaatini o‘z shaxsiy manfaati bilan uyg‘un ko‘ruvchi, xalq dardini o‘z dardi deb bilguvchi insondir. Inson o‘zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko‘rishni orzu qilgan hazrat Alisher Navoiy buni aniq qilib shunday ifoda etgan edi:

“Odami ersang demagil odami -

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”.

Ma'lumki, xar bir inson o‘zligini anglash orqali o‘z millatini anglash tomon rivojlanib boradi, chunki milliy o‘z-o‘zini anglash – kishilarni harakatga keltiruvchi ichki ma'naviy – ruhiy salohiyat hisoblanadi. Bu salohiyat halqaro darajadagi o‘zlikni anglashga, o‘z millatini, o‘z madaniyatini va qadriyatlarni saqlab qolishga, ularni zamon sivilizasiyasining ajralmas qismiga aylantirishga intilishini kuchaytiradi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch” asarida “Bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina ... o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishimumkin” deb ta'kidlaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, farzandlarimizni haqiqiy komil inson qilib tarbiyalashda, ajdodlar o‘gitini ular ongiga singdirib borsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Avvalo, har bir xalq o‘zining asrlardan buyon sinovdan o‘tgan milliy madaniyati va qadriyatlariga jiddiy e'tibor bermas ekan, o‘sib kelayotgan yoshlarda milliy axloqni



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

shakllantirishga intilish, o'zlikni anglash masalasida kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi. Shunday ekan, bu borada Alisher Navoiy kabi mumtoz shoirlarimizning boy merosiga tayanish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" T.: "O'zbekiston" 2008.
2. Alisher Navoiy. Hikmatlar. T., O'zbekiston. 2011, -B.345
3. Alisher Navoiy. Asarlar, 15 jildlik, 15-jild. T.: "Badiiy adabiyot" 1966.
4. N.Mallaev. "O'zbek adabiyoti tarixi" T.: "O'qituvchi" 1976.